

**YORMAT TOJIYEV, ABDULHAMID NURMONOV, QALANDAR  
SAPAYEVNING MORFEMA BORASIDAGI QARASHLARI****Nodirbek Nosirjon o'g'li Xabibillayev**

Namangan davlat pedagogika instituti

Tillarni o'qitish metodikasi kafedراسi o'qituvchisi

[\(morfemik1997@gmail.com\)](mailto:morfemik1997@gmail.com)

Tel: +998944979772

**Annotatsiya.** Morfema tushunchasi slavyan tillarida paydo bo'lganidan buyon deyarli barcha tillarga kirib keldi. Jumladan, o'zbek tilida ham bu termindan foydalanamiz. Ushbu termin barcha tillarda bir xil mazmunda kelmaydi. Tilning xususiyatidan kelib chiqib ayrim tillarda asosni va ayrim tillarda qo'shimchani o'zining ifodalashi mumkin. Muammo shundaki, morfema tushunchasi o'zbek tiliga ham slavyan tillariga xos bo'lgan xususiyat bilan kirib keldi (Azim Hojiyev ta'бири bilan aytganda, majburlab kirgizildi). Bu esa nazariyada o'z vaqtida bilinmasa-da keyinchalik baribir yuzaga chiqdi. Ushbu maqolada morfema tushunchasining o'zbek tilshunosligiga kirib kelishi va uning muammolari borasida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** morfema, morfologik birlik, lug'at, yasaliş tuzilishi, morfem tuzilish, leksema-morfema, so'z-morfema, omonim, sinonim, antonim.

**Annotation:** The concept of morpheme has entered almost all languages since it appeared in Slavic languages. In particular, we use this term in the Uzbek language. This term does not have the same meaning in all languages. Depending on the nature of the language, in some languages it can represent the base, and in some languages, it can represent only the suffix itself. The problem is that the concept of morpheme entered the Uzbek language with a characteristic characteristic of Slavic languages (in the words of Azim Hajjiyev, it was forcibly introduced). Although this was not known

in theory at the time, it came to light later. This article discusses the introduction of the concept of morpheme into Uzbek linguistics and its problems.

**Basic words and phrases:** morpheme, morphological unit, vocabulary, formation structure, morpheme structure, lexeme-morpheme, word-morpheme, homonym, synonym, antonym.

**Аннотация:** Понятие морфема вошло почти во все языки с момента его появления в славянских языках. В частности, мы используем этот термин в узбекском языке. Этот термин не имеет одинакового значения во всех языках. В зависимости от природы языка в некоторых языках он может обозначать основу, а в некоторых — только сам суффикс. Проблема в том, что понятие морфема вошло в узбекский язык с характерной чертой славянских языков (по словам Азима Гаджиева, оно было введено насильственно). Хотя в то время это еще не было известно теоретически, об этом стало известно позже. В данной статье рассматривается внедрение понятия морфемы в узбекское языкознание и его проблемы.

**Основные слова и словосочетания:** морфема, морфологическая единица, словарный запас, структура образования, структура морфемы, лексема-морфема, слово-морфема, омоним, синоним, антоним.

## KIRISH

O'zbek tilshunosligiga morfema tushunchasi slavyan tilidagi o'ziga xos xususiyati bilan birga kirib kelganligini unga berilgan ta'rif orqali bilib olish mumkin. Ya'ni morfema – so'zning tarkibiy qismi. Eng kichik, boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan qism. Quyida morfemani ana shunday birlik sifatida qabul qilgan olimlarning shu mavzudagi mulohazalari bilan tanishamiz.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

**Yormat Tojiyevning morfema borasidagi qarashlari.** Olim morfemikani morfologiyaning alohida bir bo'limi ekanini ta'kidlaydi<sup>1</sup>. Bu Tojiyev domlaning

---

<sup>1</sup> Тожиев Й. Ўзбек тили морфемикаси. – Т.: 1992. 5-6.

o‘zbek tilshunosligida morfemaga bo‘lgan an’anaviy qarash hisoblanmish so‘zning tarkibiy qismi ekanini qabul qilganliklarini anglatadi. Olim morfemalarni ikki qismga (yetakchi morfema – o‘zak morfema va ko‘makchi morfema – affiks morfema) ajratib yuqoridagi tilshunoslar kabi fikrlaydi. Ammo uning qarashlarida biroz novatorlik mavjud. Bu uning tub so‘zlarni (morfema qabul qilmagan yoki nol ko‘rsatgichga ega bo‘lgan leksemalarni) o‘zak morfema sanamaydi:

So‘z qismlardan (eng kamida ikki qismdan) tashkil topmagan bo‘lsa, u tub so‘z sifatida baholansa, bu o‘rinda morfema haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, «So‘z birgina morfemadan iboratdir», — deb qarash maqsadga muvofiq emas. Demak, morfema tushunchasi so‘z qismlardan iborat bo‘lgandagina paydo bo‘ladi. Jumladan, kuz, muz, kel, bir, ol, non, ish, ter, yur, tur, gul, tog‘, bor va boshqalar. Alohida olinganda, morfemadan keyin turadigan yirik til birligi bo‘lib, ular so‘zlardir. Bu so‘zlar gapda ishtirok etganda, ma’lumki, albatta, qandaydir bir grammatik formaga ega bo‘ladi. Bu forma nol forma ko‘rinishida bo‘lishi ham, ko‘rsatkich (alohida) ishtirok etgan ko‘rinishda ham bo‘lishi mumkin. Qiyoslang: kuz kelishi bilan qishki-kuzgi ishlarga tayyorgarlik boshlab yuborildi; Har yili kuzda bir dala aylanib kelaman. Birinchi gapdagi kuz so‘zini grammatik ma’no ifodalovchi nol ko‘rsatkichlariga nisbatan (bosh kelishik, birlik...) o‘zak morfema sifatida baholash mumkindek tuyulsa ham, u o‘zak morfema emas, balki asos — forma yasaliş asosidir. Demak, gap tarkibidagi kuz so‘zi (so‘z-formasi) bilan alohida olingan, lug‘aviy birlik sifatida qaraladigan kuz so‘zi o‘rtasida farq bor (asos va so‘z sifatida farq qiladi).

Keyingi gapda kuzda so‘zi, ko‘rinib turibdiki, ikki qismdan iborat: kuz – o‘zak morfema; -da affiks morfema. Bu so‘zning morfem tahliliga ko‘radir. Morfologik tahlilga Ko‘ra ham bu so‘z ikki qismdan iborat: kuz — forma yasaliş asosi; -da grammatik ma’no ifodalovchi vosita. Xullas, ikkinchi holatda so‘zning kuz qismi morfem tahliliga ko‘ra o‘zak morfema, morfologik tahlilga ko‘ra forma yasaliş asosidir<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Тожиев Й. Ўзбек тили морфемикаси. – Т.: 1992. 6-б.

Olim soʻz va morfemaning farqi bor ekanini ham bildirib oʻtadi. Yaʼni oʻzak morfema soʻz emas, soʻz esa morfema emas. Masalan, ishchi soʻzidagi oʻzak morfema – ish soʻzidir. Ushbu oʻzak morfemaga ergash morfema qoʻshilib ishchi soʻzi (oʻzak morfemasi emas) hosil boʻlmoqda. Soʻz va oʻzak morfema haqida olim toʻxtalar ekan, yana bir fikrni ilgari suradi: soʻzning maʼno doirasi bilan oʻzak morfemaning maʼno doirasi hech qachon teng boʻlmaydi. Oʻzak morfemaning maʼno doirasi nihoyatda cheklangan boʻlib, bu maʼnoning qanday maʼno ekanligi ana shu konkret soʻz doirasida (kichik qurshov – yasama soʻz yoki forma doirasida) belgilanadi. Soʻzning maʼno doirasi esa katta qurshov – gap doirasida belgilanadi<sup>3</sup>.

Morfemaga soʻzning tarkibi sifatida qarash nuqtayi nazaridan ushbu fikr toʻgʻri sanaladi. Boshqacha boʻlishi ham mumkin emas. Ammo oʻzbek tilida bunday emasligini quyida koʻrib oʻtamiz. Bundan tashqari, olim morfemalar biri ikkinchisiga bogʻliq boʻladi, biri ikkinchisidan ajratilganida morfemalik xususiyatini ana shu oʻrinda yoʻqotgan boʻladi, degan qarashni ilgari suradi<sup>4</sup>. Bu fikrning ham oʻzbek tilidagi morfema birligi uchun xos emasligini quyida koʻrib oʻtamiz. Yaʼni -lar morfemasi soʻzga qoʻshilgandagina mavjud, soʻzdan alohida ajratilganida mavjud boʻlmaydi, degan fikrning oʻsha davr uchun toʻgʻri boʻlsa-da, hozirgi oʻzbek tilshunosligidagi morfema borasidagi fikrga toʻgʻri kelmaydi.

Olim affikslarda ham omonimiya, sinonimiya, antonimiya va polisemiya kabi hodisalar boʻlishini bildirib oʻtgan. Ammo bu hodisa nafaqat oʻzbek tili, balki hech qaysi til uchun xos emasligini quyida koʻrib oʻtamiz. Sababi lugʻaviy maʼno bildiradigan soʻzlarnigina qoʻshish mumkin boʻlgan yuqoridagi guruhlarda lugʻaviy maʼnosi boʻlmagan birliklarni tahlil qilish mantiqqa toʻgʻri kelmaydi.

Shunday qilib, olimning morfema borasidagi qarashlari bilan yuqorida tanishib chiqdik. Shuni maʼlum qilishimiz mumkinki, Yormat Tojiyevning qarashlari bugungi

<sup>3</sup> Yuqorida koʻrsatilgan asar. 10-b.

<sup>4</sup> Тожиев Й. Ўзбек тили морфемикаси. – Т.: 1992. 9-б.

kun o‘zbek tilshunosligiga mos emas. Ammo o‘z davri uchun eng to‘g‘ri va yangicha qarash bo‘lgan.

**Abdulhamid Nurmonovning morfema borasidagi qarashlari.** Olim morfemaning jahon tilshunosligidagi tutgan o‘rni haqida qimmatli ma’lumotlarni berib qoldirgan<sup>5</sup> (biz ular haqida to‘xtalib o‘tishni lozim topmadik). Ammo uning o‘zi ushbu manbada morfema haqida qarashlarini aniq bildirmagan.

Olim morfemalarning mazmun va vazifasiga ko‘ra quyidagi to‘rt turi bor ekanini bildirib o‘tadi:

- Leksik morfemalar;
- So‘z yasovchi (derivatsion) morfemalar;
- Grammatik ma’no ifodalovchi morfemalar;
- Oraliq morfemalar (undov leksema, modal morfemalar);<sup>6</sup>

O‘sha davr uchun bunday qarash to‘g‘ri hisoblansa-da, morfemani bunday turlarga bo‘lib o‘rganish uning mohiyati o‘zbek tilshunosligida aniq belgilanmaganini anglatar edi. Birinchidan, leksik morfemalar deganda so‘zning asosiy mazmunini anglatib keluvchi qism – asos (yetakchi morfema, o‘zak morfema) tushunilgan. Bu esa, rus tilshunosligi ta’siri natijasi hisoblanadi. So‘z yasovchi morfema va grammatik ma’no ifodalovchi morfema sifatida bo‘linishi esa, morfema haqida bildirilgan fikrlarning bugungi kun holatiga mos kela oladi deyishimiz mumkin. Ammo oraliq morfemalar deyilishi morfemaning bu turiga qanday nom berishni bilmaslik ortidan kelib chiqqan deyish mumkin. Bu borada Azim Hojiyevning “so‘z leksemalar” degani mantiqqa ko‘proq mos kelishi borasida quyida batafsil to‘xtalamiz.

**Qalandar Sapayevning morfema borasidagi fikrlari.** Olim morfemikani tilshunoslikning alohida bo‘limi ekanini va uning o‘rganish obyekti morfema ekanini bildirib o‘tadi. Shu bilan birga morfema deganda so‘zning asos va qo‘shimchalar qismini aralash tahlil qiladi. Bu bilan olim morfemaning yetakchi morfema va

<sup>5</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. Т. - 2012.

<sup>6</sup> Nurmonov A. va boshq. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. 17-b.

ko'makchi morfema degan turlari borligini tasdiqlab rus tilshunosligi ta'sirida kirib kelgan bunday qarashni ma'qullaydi. E'tibor bering: Morfemika so'zning eng kichik ma'noli qismlari haqidagi ta'limotdir. Bu kichik qismlar tilshunoslikda morfemalar deb yuritiladi. Masalan, paxtakorlarimizga so'zi paxta, -kor, -lar, -imiz, -ga qismlaridan iborat. Bu qismlar turli xil so'zlar tarkibida qatnashib, o'ziga xos ma'nolar ifodalaydi. Bu qismlar yana bo'linadigan bo'lsa, uning ma'nosi yo'qoladi. Demak, morfema so'zning eng kichik ma'noli qismidir.

Morfema tarkibiga ko'ra fonemalar kompleksidan, ba'zan bitta fonemadan iborat bo'ladi. Masalan, u-ni, kitob-i<sup>7</sup>.

Yuqoridagi holatda uch so'zning tahlili berilgan: Paxtakorlarimizga, uni va kitobi. Paxtakorlarimizga so'zi tarkibidagi paxta so'zining ham morfema hisoblanishi va quyiroqda bitta fonemadan iborat morfema sifatida u-ni so'zining keltirilishi so'zning asosiy ma'nosini ifodalab kelayotgan qismini – asos qismni morfema sanalayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari olim morfemaning affikslari mavjud so'zlardagina ajralishini keltiradi. Bu orqali u morfemaning so'zdan tashqarida mavjudligini inkor etadi. E'tibor bering: gulzor, paxtakor, temirchilik, o'qiganman kabi qismlar morfemalarga ajratiladi, ammo uy, kitob, olma, osh, ko'm-ko'k kabi so'zlar morfemalarga ajratilmaydi. Ular yaxlit so'zlardir<sup>8</sup>. Demak, olim morfemani so'zdan ayro tushunmoqda. Ya'ni so'zning asosiy ma'nosini ifodalab kelayotgan qism – asos morfema hisoblanadi-yu, qo'shimcha qo'shilmaganda u morfemalikdan chiqadi. Ushbu holat morfemaga berilgan ta'rifning mukammal emasligini anglatadi. Aslini olganda, olimning morfemani so'zning tarkibiy qismi degan tamoyildan kelib chiqib bildirgan ushbu xulosasini xato deb bo'lmaydi. Buni morfemaga bo'lgan yanglish tushuncha ketidan paydo bo'lgan qarash deb atash mumkin. Demak, masalaning yechimi morfemaga bo'lgan munosabatda ekan.

<sup>7</sup> Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Т.: 2009. 6-б.

<sup>8</sup> Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Т.: 2009. 6-б.

Olimning: Morfemalar ma'no va vazifasiga ko'ra ikki xil:

- O'zak morfema;

- Affiksial morfema kabi turlarga bo'lishi ham rus tilshunosligi ta'sirida kirib kelgan grammatikani ma'qullashi borasidagi yuqoridagi xulosamizni dalillaydi.

Qalandar Sapayev o'zakning qo'shimchaga aylanishi mumkinligi borasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: O'zak morfema o'z konkret ma'nosidan uzoqdashib, umumiy xarakterda ma'no ifodalaydigan vositaga, ya'ni affiksial morfemaga aylanishi mumkin. Masalan, oshxona, ishxona, choyxona, talabnoma, taklifnoma, ruxsatnoma kabi so'zlardagi xona, noma elementlari shu o'rinda bir ish faoliyat joyi ma'nosini, biror predmet turi ma'nosini ifodalovchi qo'shimchaga aylangan<sup>9</sup>. Ko'rinadiki bu fikr amaldagi imlo lug'atiga mos kelmaydi. Unda aytilishicha, xona, noma poya kabi so'zlar qo'shma so'zlar sifatida baholangan<sup>10</sup>. Bundan tashqari, bugungi kunda affiksoidlar sifatida o'rganilayotgan ushbu birliklarning o'z xususiyatini yo'qotib qo'shimcha vazifasiga o'tgan qismlar sifatida berilishi ularning so'zdan tashqarida ham affiks ekanini anglatar edi. Vaholonki, ushbu qismlar leksemalik maqomini yo'qotganicha yo'q.

Olimning qo'shimchalar ikki xil bo'lishi haqidagi: so'z yasovchi va shakl yasovchi fikrlarini, so'zda ularning kelish ketma-ketligi borasidagi qarashlarini, qo'shma qo'shimchalar borasidagi mulohazalarini o'rinli deb bildik. Ammo dardchil, epchil, yugurdak, kekirdak kabi so'zlardagi -chil va -dak morfemalarining ajratilmasligi borasidagi qarashlari biroz munozaralidir. Bizning fikrimizcha, ushbu so'zlarning tarkibiy qismlari bugungi kunda yaxlitlanishga ulgurmagan. Ularning tarkibga ajratilishi va tarkibida yasovchi morfemalar bor deb hisoblanishi xato fikr hisoblanmaydi.

Ishning davomida olim yana shularni ma'lum qiladi: so'zlarda bo'lgani kabi qo'shimchalarda ham shakl va ma'no munosabati asosida omonimiya, polisemiya,

<sup>9</sup> Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Т.: 2009. 9-6.

<sup>10</sup> Mahmudov N. O'zbek tilining katta imlo lug'ati – Т.: Kafolat print company. 2023. 14-b.

sinonimiya kabi hodisalar uchraydi<sup>11</sup>. Ushbu fikrlarning bugungi kun o‘zbek tilshunosligidagi morfema borasidagi qarashlarga mos kelmasligi Azim Hojiyevning morfema borasidagi qarashlariga mos emas. Bu borada maxsus maqolamizda bayon qilamiz.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, Qalandar Sapayev Azim Hojiyevning morfema borasidagi 2000-yildan buyun bildirib kelayotgan fikrlariga 2009-yilda nashr ettirilgan kitobida munosabat bildirmagani holda unga qarshi fikrlarni berib o‘tadi. Bu bilan olim Hojiyevning fikrlariga qo‘shilmasligini anglashimiz mumkin. Bizningcha, morfema borasida Hojiyevning qarashlari o‘zbek tili nuqtayi nazaridan o‘rinlidir.

### **XULOSA**

Ushbu maqolada morfemaning o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi borasida ma’lumotlar berildi. Tilshunoslarning bu boradagi qarashlari tahlil qilinib, bir-biri bilan taqqoslash orqali ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar ko‘rib o‘tildi. Bularning barchasi bir bo‘lib o‘zbek tilshunosligidagi morfemaga bo‘lgan munosabatni aks ettiradi. Ushbu bobda berilgan ma’lumotlar orqali shunday xulosalarga kelish mumkin:

Morfemaning jahon tilshunosligida tutgan o‘rni masalasiga Abdulhamid Nurmonov batafsil to‘xtalib o‘tganlar.

Qalandar Sapayev ham 2009-yilda nashr ettirilgan kitobida Yormat Tojiyevning 1992-yilda nashr ettirilgan kitobida keltirilgan morfemalar affikslari mavjud so‘zlardagina ajraladi, degan fikriga mos mulohazani keltirib o‘tadi. Ya’ni Qalandar Sapayev ham Yormat Tojiyevdek so‘z va o‘zak morfema o‘rtasida farq mavjudligini tasdiqlaydi.

Qalandar Sapayev o‘z xususiyatini yo‘qotgan o‘zak morfemalarning affiksial morfemalarga aylanishi deya ishxona, taklifnoma, oshxona kabi so‘zlardagi noma, poya kabi so‘zlarni misol keltiradi. Bugungi kunda affiksoidlar sifatida

<sup>11</sup> Сапаев Қ. Ҳозирги ўзбек тили. – Т.: 2009. 17-б.



o'rganilayotgan ushbu birliklarning o'z xususiyatini yo'qotib qo'shimcha vazifasiga o'tgan qismlar sifatida berilishi ularning so'zdan tashqarida ham affiks ekanini anglatar edi. Vaholonki, ushbu qismlar leksemalik maqomini yo'qotganicha yo'q.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi O'zbek adabiy tili. – T.: Tamaddun, 2022. – bet 121.
2. Xojiev A. Hozirgi ўzbek tiliда форма ясалиши. – T.: Ўқитувчи, 1979. – бет 80.
3. Xojiev A. Ўzbek tili сўз ясалиши тизими. – T.: Ўқитувчи, 2007. – бет 168.
4. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – T.: Fan, 2008. – бет 436.
5. Mengliyev B. va boshq. O'zbek tilining so'z yasaliши o'quv lug'ati. – T.: 2007. – бет 142.
6. Mahmudov N. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.: Akademnashr, 2013. – бет 528.
7. Сапаев Қ. Hozirgi ўzbek tili. – T.: 2009. – бет 254.
8. Тожиев Й. Ўzbek tili морфемикаси. – T.: 1992. – бет 68.
9. Ўзбекистон ССР Фанлар академияси. Ўzbek tili грамматикаси. – T.: Фан, 1973. – бет 609.
10. Nosirjon o'g'li, Xabibullayev Nodirbek. "ANALYSIS OF SOME WORDS WHICH ARE DIFFICULT TO DISTRIBUTE INTO UZBEK LANGUAGE." International journal of artificial intelligence 4.03 (2024): 592-594.
11. Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li. "Qozoq Va O'zbek Tilidagi Modal So'Zlar Chog'Ishtirmasi." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3.5 (2023): 27-33.